

## AVLODLAR NAZARIYASIGA ASOSLANGAN METODIK YONDASHUVLAR: ALFA VA BETTA AVLODLAR MISOLIDA

**Xusanova Karimaxon Faxriddin qizi**

*e-mail: husanova.karima@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Avlodlar nazariyasi ta'lim metodikasi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Xususan, XXI asr o'quvchilari hisoblangan Alfa avlodning bilim olish xususiyatlari va Betta avlod uchun nazariy prognoz asosida metodik yondashuvlar ko'rib chiqiladi, shuningdek, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va individual ta'limning o'rni yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Avlodlar nazariyasi, Alfa avlod, Betta avlod, metodik yondashuvlar, usul va uslub, raqamli texnologiya, V. Shtrauss, N. Xov.*

XXI asr ta'lim tizimi jamiyatning tubdan o'zgarishi, yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi va avlodlar o'rtasidagi tafovutlar kuchayib borishi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun nafaqat metodika, balki avlodlar psixologiyasi va ijtimoiy xususiyatlarini chuqur o'rganish zarurdir. Shu bois, metodika va avlodlar nazariyasini birgalikda tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Xususan, ta'lim jarayonida Alfa va Betta avlodlari bilan ishlash, ularning psixologik, kognitiv va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish metodik yondashuvlarning rivojlanishini talab etadi. Ta'lim sohasida metodik yangilanishlarning asosiy omillaridan biri ham o'quvchi shaxsini chuqur anglash va uning avlodiga xos psixologik hamda ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olishdir.

Avlodlar nazariyasi (Generations Theory) ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi, chunki u o'quvchilarning dunyoni qabul qilish uslubi, qiziqish va ehtiyojlari, bilim olish va o'rganish tezligini tushunishga yordam beradi. Shu bois metodik yondashuvlarni ishlab chiqishda avlodlarning psixologik, ijtimoiy va texnologik xususiyatlarini inobatga olish zarur O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish keng rivojlanmoqda.

Masalan, xalq ta'limi vazirligi tomonidan olib borilgan kuzatuvlarda raqamli ta'lim platformalaridan foydalangan o'quvchilarning darsga qiziqishi 30% ga ortgani aniqlangan. Avlodlar nazariyasi (Generations Theory) ilk bor amerikalik sotsiologlar V. Shtrauss va N. Xov tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u har bir avlodning o'ziga xos qadriyat va dunyoqarashga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Mazkur nazariya ta'lim metodikasini yangilashda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki ustozning dars berish uslubi o'quvchining qabul qilish xususiyatiga mos kelmasa, ta'lim samarasi pasayadi.

Shu ma'noda, Alfa va Betta avlodlarning o'zlashtirish ehtiyojlarini o'rganish kelajak metodikasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Alfa avlod vakillari 2010-yildan keyin tug'ilgan va hozirgi kunda maktabning asosiy o'quvchilari bo'lgan yoshlarni o'z

ichiga oladi. Ular “raqamli texnologiyalarni tabiiy til sifatida qabul qilgan avlod” deb tasniflanadi. Alfa avlodning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

- Internet va texnologiyasiz hayotni tasavvur qilolmaydi;
- Vizual va tezkor axborotni afzal ko’radi (video, infografika, animatsiya);
- Qisqa va lo’nda bilimlarni tez qabul qiladi;
- O’yinlashtirilgan (gamifikatsiya) dars uslublariga qiziqadi;
- Mustaqil tajriba asosida bilim olishga moyilligi yuqori.

Dars jarayonida turli multimedia vositalaridan foydalanish, darsni qisqa “bo’lak”larga ajratib, akademik ma’lumotlarni saqlab qolgan holda mazmunni vizuallashtirish, interaktiv metodlar, jumladan, “Debat”, “Brainstorming” va turli loyiha ishlari hamda gamifikatsiya elementlarini joriy qilish orqali bu avlod vakillarini darslarga qiziqtirish mumkin.

Betta avlod 2025-yildan keyin tug’iladigan farzandlarni qamrab oladi. Ular texnologiyaning eng yuqori bosqichida kamol topadi va sun’iy intellekt, virtual reallik, robototexnika kabi sohalar hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Bu avlod uchun ta’lim metodlari ham mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, Janubiy Koreya va Singapur maktablarida AI yordamida individual ta’lim dasturlari yo’lga qo’yilgan. Masalan, Singapurdagi ‘Smart Learning’ platformasi har bir o’quvchining tezkor javoblari asosida uning darajasini aniqlaydi va shaxsiy mashg’ulotlarni taklif qiladi.

Bu esa o’quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali natija bermoqda, shuningdek, o’qituvchilardan har bir avlodning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olish, dars metodikasida texnologiya va insoniy qadriyatlar uyg’unligini saqlash, ta’lim jarayonida o’quvchining qiziqishi va faol ishtirokini ta’minlash hamda metodlarni doimiy yangilab boorish va ularni yangi avlod ehtiyojlariga moslashtirishni talab qiladi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo’ldoshev “Dastur tuzish, asar tanlash, soatlar miqdorini aniqlash, darsliklar va qo’llanmalar yaratish, metodlar tanlash, metodikalar ishlab chiqish singari xilma-xil tadbirlar bosh maqsadga xizmat qilsagina foydali hisoblanadi. Shaxsni shakllantirish odamni kamolot yo’liga solishdir. Bu yo’lga kirgan odam bir umr o’zini o’zi tarbiyalaydi, kamolotga yetkazadi va bir umr ezgu ma’naviy qadriyatlargagina amal qilib yashay oladi. Bunday odam uchun kamolotga intilish ichki ehtiyojga aylanadi”<sup>9</sup> deb ta’kidlaydi. Avlodlar nazariyasi asosida metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy ta’lim tizimi uchun muhim yo’nalishlardan biri hisoblanadi.

Alfa avlod uchun interaktiv va raqamli texnologiyalarga asoslangan metodlar samarali bo’lsa, Betta avlod uchun individuallashtirilgan, AI asosidagi metodik yondashuvlar dolzarb bo’lishi kutilmoqda. Avlodlar nazariyasining asosiy g’oyasi shundan iboratki, jamiyatdagi turli tarixiy sharoitlar, texnologik o’zgarishlar, iqtisodiy va madaniy muhit bir avlodni ikkinchisidan ajratib turadi. Masalan, bugungi ustozlar ko’pincha X

<sup>9</sup> Йўлдошев Қ.Б.Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий методик асослари.13.00.02.Пед. фан. д-ри... дис. -Тошкент:1996. -Б.111.

avlodi (1965–1980-yillarda tug‘ilganlar) yoki Y avlodiga (1980–1995) mansub. Ularning tarbiyasi, bilim olish uslubi, qadriyatlari bir-biridan deyarli farq qiladi. Endilikda esa bizning maktablarimizda asosan Alfa avlodi (2010–2025) o‘qiydi va yaqin orada Betta avlodi ham ta‘lim tizimiga kirib keladi. . Shu bois, ustozlar va metodistlar avlodlarning ehtiyojlarini chuqur o‘rganib chiqishlari va shu bilan birgalikda dars metodikasini o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab moslashtirib borishlari lozim.

Avlodlar nazariyasi bugungi kunda ta‘lim metodikasini yangicha ko‘z bilan ko‘rish imkonini bermoqda. Alfa va Betta avlod vakillari raqamli texnologiyalarga asoslangan sharoitda ulg‘ayayotgani sababli, ularning ta‘lim jarayonidagi ehtiyojlari va o‘qituvchi bilan muloqot qilish uslublari avvalgi avlodlardan keskin farq qiladi. Shunday ekan, metodik yondashuvlarda quyidagi xulosalar muhim:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan metodika – har bir avlodning psixologik, ijtimoiy va kognitiv xususiyatlari inobatga olinishi kerak.

2. Raqamli ta‘lim muhitining ustuvorligi – Alfa va Betta avlod uchun ta‘lim jarayonini faqatgina an‘anaviy darsliklarga tayangan holda tashkil etish yetarli emas, balki AR, VR, sun‘iy intellekt, interaktiv platformalardan foydalanish zarur.

3. Amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar – nazariy bilimni kundalik hayot bilan bog‘lash, loyiha va tadqiqot ishlari orqali mustahkamlash samarali natija beradi.

4. Ustoz va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy munosabat – avlodlar o‘rtasida bo‘ladigan tafovutlarni “bo‘linish” emas, balki “bir-birini to‘ldirish” tamoyiliga asoslash zarur.

Yuqoridagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, avlodlar nazariyasiga asoslangan metodik yondashuvlar ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va ustozlar faoliyatini samaraliroq qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. “Ta‘limning yangi tendensiyalarini amaliyotga joriy etish o‘quvchining fanga qiziqishini oshirib, maktabni qiziqarli mashg‘ulotlar maskaniga aylantiradi va o‘quvchini chin ma‘noda hayotga tayyorlaydi”<sup>10</sup> Demak, Alfa va Betta avlodlarni o‘qitishda metodik innovatsiyalarni qo‘llash nafaqat ta‘lim jarayonida, balki kelajak avlodlarning ijtimoiy moslashuvchanligida ham katta ahamiyatga ega.

Ayrim ruhshunos olimlar “Tarbiya qonuniyatiga ko‘ra shaxsning kamolga yetishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo‘lsa, uni amalga oshirish qiyin”<sup>11</sup> bo‘ladi deb hisoblaydilar. Bugungi kun pedagogikasi oldida turgan asosiy masalalardan biri sifatida mustaqil fikr olaydigan, dunyoqarashi keng, ijodiy va tanqidiy tafakkurga ega o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash zarur ekanligini ta‘kidlash joiz

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, kelajak ta‘limini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun pedagoglar nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlovchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanuvchi shaxs bo‘lishi zarur.

<sup>10</sup> Yusufjonova N, Sizda 45 daqiqa bor. –Toshkent: Chashma, 2024. – B.5.

<sup>11</sup>Atayeva N, Rasulova F, Salayeva M, Hasanov S.Umumiy pedagogika. –Toshkent:Fan va texnologiya,2012. – B.599.

Alfa va Betta avlodini to'g'ri tarbiyalash va o'qitish jamiyatning kelajakdagi intellektual salohiyati va barqaror taraqqiyotini belgilaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Atayeva N, Rasulova F, Salayeva M, Hasanov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 599.
2. Yusufjonova N, Sizda 45 daqiqa bor. – Toshkent: Chashma, 2024. – B. 5.
3. Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий методик асослари. 13.00.02. Пед. фан. д-ри.... дис. – Toshkent: 1996. – B. 111.